ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-2

KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI

Urazova Nafisa Gulimmatovna
Urganch davlat univesiteti tadqiqotchisi;

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatimizda yoshlarni g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan kamol toptirishda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan kitobxonlik madaniyatining bugungi kundagi holati, bu boradagi ayrim muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan fikrmulohazalar bayon qilingan.
Kalit so‘zlar: kitobxonlik madaniyati, ma’naviy ehtiyoj, mutolaa, badiiy asar tahlili, savodxonlik.

eKirish

Kitobxonlik madaniyati - bu nafaqat kitoblarni o‘qish va ulardan bilim olish jarayoni, balki shaxsiyatning ma'naviy-axloqiy, estetik, fikrlash va intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi omil. Bugungi kunning jamiyatida kitob o‘qish va kitobxonlik madaniyati shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, bu masala ta'lim tizimi va yoshlar tarbiyasiga aloqador bo‘lib, ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazardan o‘rgatilishi lozim. Kitobxonlik madaniyati — bu kitoblarni tanlash, o‘qish, ulardan olingan bilimlarni amalda qo‘llash, bilim va madaniyatni yuksaltirishga intilishdan iborat bo‘lgan jarayon. Bu madaniyat, ayniqsa, yosh avlod uchun ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, ularning dunyoqarashini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Kitobxonlik madaniyati nafaqat o‘qish, balki kitoblarni qadrlash, ulardan to‘liq foydalana olish, o‘z fikrini insho va maqolalarda ifoda etish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.Kitob o‘qishning jamiyatdagi ahamiyati beqiyosdir. U nafaqat individning ma'naviy dunyosini boyitadi, balki butun jamiyatning ilmiy, madaniy, axloqiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Kitobxonlik madaniyati insonni nafaqat bilim olishga, balki zamon va makon o‘zgarishlariga moslashishga, tanqidiy fikrlashga, tarixiy va madaniy merosni qadrlashga ham o‘rgatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Davlat va jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohalari qancha taraqqiy etsa, insonlarning ilmiy-ma’naviy salohiyati ham shunga mos va mutanosib bo‘lishi lozim. Fuqarolarning ilmiy iqtidori, rahbarlik salohiyati, harbiy bilimlari, kasbiy mahorati yuqori saviyada bo‘lishi bilan birga, ularning shaxsiy fazilatlari: insoniylik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, milliy g‘urur tuyg‘ulari qanchalik kuchli bo‘lsa, davlatimiz poydevori ham, kelajagi ham shunchalik mustahkam bo‘ladi. Mustaqil O‘zbekistonimiz bugungi tezkor taraqqiyot davrida har tomonlama eng rivojlangan davlatlar qatoridan mustahkam o‘rin egallash yo‘lidan sobitqadamlik bilan borayotgan bir davrda xalqimizning, shuningdek, kelajagimiz egalari hisoblanmish o‘sib kelayotgan yosh avlodning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi ham shunga mos holatda teran, aniq, xolis va qat’iy bo‘lmog‘i lozim. Shu bois jamiyatning mazkur talabini – g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan sobitqadam avlodlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun, avvalo, kamolotning dastlabki bosqichi sifatida har bir yoshning shaxs sifatida kamol topishiga zamin tayyorlanadigan ta’lim-tarbiya jarayoniga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “zamon talabi, islohotlar shiddatiga mos kadrlar tayyorlash” maqsadida keyingi yillarda ta’lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy kadrlar tayyorlashga qaratilgan qator ishlar amalga oshirildi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-2

Tarixiy hodisalar shundan guvohlik beradiki, moddiy ehtiyojlar har bir davrda o‘ziga xos tazda namoyon bo‘laveradi, lekin ma’naviy immunitetning mustahkam bo‘lishi hamma davrlar uchun birdek qadriyat sanaladi. Aytish joizki, bugungi kunda mamlakatimizda O‘zbekistonning **2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi** 2021-yilning dekabrida ishlab chiqilgan. Ushbu strategiya mamlakatni yanada rivojlantirishga, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda muhim o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan kompleks reja sifatida ishlab chiqilgan. Jumladan, strategiyaning Madaniyat va ma’naviyatni rivojlantirish yo‘nalishida:

- milliy madaniyatni qo‘llab-quvvatlash. Kitobxolik, san’at, adabiyot va ilm-fan sohalarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilgan.
- yoshlar va ijtimoiy faollikni oshirish. Xalqning madaniy rivojlanishiga ta’sir etadigan tizimli ishlanmalar yaratish vazifalari belgilangan.

Shuningdek, kitobxonlik masaniyatini yuksaltirishda tashkiliy-amaliy ishlarni olib borish va ularni zamon talablariga mos tarzda yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tegishli huquqiy-me’yoriy hujjatlar bazasi yaratilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezedentining bu sohada ijobiyo‘zgarishlar, tub islopotlar amalga oshirishga qaratilgan 2006-yil 20-iyuldagi “Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta’minlashni tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori, 2011-yil 13-apreldagi “Axborot-kutubxona to‘g‘risida”gi Qonuni, 2017-yil 12-yanvardagi «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitobmutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida»gi Farmoyishi, 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi vakitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha Kompleks choratadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori asosida yurtimizda keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Mazkur qonun va qonunosti hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash yuzasidan hududlarda Axborot-resurs markazlari faoliyati zamon talablariga mos isloh qilindi, yangi kitob savdo do‘konlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi hamda aholiga xizmat ko‘rsatish sifat jihatidan ancha takomillashtirildi. Kitobsevarlar o‘rtasida o‘tkaziladigan ko‘rik-tanlovlar respublika miqyosida ommalashtirildi va shaxsan davlatimiz rahbari tomonidan rag‘batlantiruvchi sovrinlar belgilandi. Yoshlarning kitob o‘qishga ishtiyoqi ortdi. Nashriyotlarda badiiy asarlarni bir necha nusxada chop etish va hududlarga tarqatish ishlari sur’ati oshdi.

Muhokama

“Yoshlarimizga munosib ta’lim berish, ularning ilm-fanga bo‘lgan intilishlarini ro‘yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishimiz, o‘rta va oily o‘quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o‘quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak”,-deydi yurtboshimiz. Ta’lim sohasi faoliyatini kitoblarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi ham, o‘qituvchi ham bevosita kitob mutolaasiga ehtiyoj sezadi. Bu quvonarli, albatta. Lekin hozirgi kunda o‘quvchilar asosan ilmiy adabiyotlar, darslik va qo‘llanmalardan foydalanayotganlari bois badiiy asarlar mutolaasiga vaqt ajratishga imkoniyatlari cheklanyapti. O‘quvchi faqat adabiyot darsida o‘qituvchi bergan vazifani bajarish uchungina badiiy asarlarni qo‘lga olyapti. Natijada esa ma’lum: mutolaa jarayoni sevimli mashg‘ulot emas, majburiyatga aylanib qoladi.

Kitob mutolaasiga havasi bolalikdan paydo bo‘lmagan o‘quvchi keyinchalik berilgan katta hajmli asarlarni o‘qishga kuch topolmaydi, ishtiyoq sezmaydi, xohish bildirmaydi, faqat darslikda berilgan qisqartirilgan parcha bilangina tanishadi va yozuvchining butun asar mazmuniga singdirib yuborgan pafosini, g‘oyaviy-badiiy maqsadini to‘la anglolmaydi, badiiy

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-2

asarlarning haqiqiy zavqidan bebahra qoladi, adabiyotning haqiqiy kuchini, qudratini his qilmaydi, natijada kitob o‘qishga mehr qo‘ymaydi. Kam o‘qishning salbiy oqibatlari juda ko‘p: kishida mustaqil fikrlash qobiliyati, voqelikni teran idrok etish, hodisalarga munosabat bildira olish, oq-qorani farqlay bilish ko‘nikmalari to‘liq shakllanmaydi; milliy madaniyat, tarix va an’analar bilan keng tanish bo‘lmaydi; ma’naviy qashshoqlik va ojizlik kelib chiqadi; hayotda muammolarga duch kelganda yechim topishga qiynaladi, o‘zini irodasiz sanaydi; savodxonligi past bo‘ladi, so‘z boyligi kamligi sababli fikrini to‘la ifodalab berolmaydi.

Natija

Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Intellektual va shaxsiy rivojlanish Kitobxonlik madaniyati shakllantirish orqali o‘quvchilar va yoshlar nafaqat bilim olishadi, balki intellektual va shaxsiy rivojlanish uchun zarur bo‘lgan asoslarga ega bo‘lishadi. Kitoblarni o‘qish kishining dunyoqarashini kengaytiradi, o‘z fikrini mustaqil ravishda rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ularning aqliy faolligi ortadi, va mustahkam bilim asosida muammolarga yechim topishga qodir bo‘ladilar.
2. Axloqiy-estetik tarbiya Kitoblar nafaqat ilmiy bilimlarni, balki axloqiy va estetik qadriyatlarni ham o‘rgatadi. Klassik adabiyotlar, felsefi asarlar, badiiy asarlar insonni ma'naviy jihatdan to‘ldiradi, uning ahloqiy fazilatlarini shakllantiradi. Kitobxonlik madaniyati axloqiy va estetik tarbiya masalalarida ham ijtimoiy muhim rol o‘ynaydi. Kitoblar orqali yoshlar o‘zlarining ichki dunyosini anglab, haqiqat va adolat, do‘stlik va sadoqat, vatanparvarlik kabi insoniy qadriyatlarni anglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.
3. Pedagogik jarayonda kitoblar va o‘qishning roli Ta'lim tizimida kitoblarning roli beqiyosdir. Kitoblar nafaqat ta'limning ilmiy poydevorini yaratadi, balki pedagogik jarayonda o‘qituvchining hamkoriga aylanadi. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda o‘qituvchining rolini e'tiborga olish zarur. U kitoblarni o‘quvchilarga tanishtirishda, ularga o‘qishni qiziqarli va foydali qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, o‘qituvchi o‘quvchilarga kitoblarni to‘g‘ri tanlash va ulardan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar berishi lozim.
4. Jamoaviy va Madaniy Taraqqiyot Kitoblar jamoaviy madaniyatni rivojlantirishda ham katta rol o‘ynaydi. Ular odamlar o‘rtasidagi kommunikatsiyani, tushunishni va axborot almashinuvini osonlashtiradi. Kitobxonlik madaniyati nafaqat individual o‘qish jarayoni, balki jamoa bilan birgalikda o‘qish, munozaralar o‘tkazish, fikrlarni almashish kabi ijtimoiy jarayonlarni ham o‘z ichiga oladi. Bunday faoliyatlar orqali insonlar o‘rtasida do‘stlik, hurmat va bir-birini tushunish hissi mustahkamlanadi.
5. Yoshlar o‘rtasida Kitobxonlik Madaniyatini Rivojlantirishning Innovatsion Usullari Zamonaviy texnologiyalar va internetning rivojlanishi kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. O‘qish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish, elektron kitoblar va audio-kitoblar orqali o‘quvchilarga kitoblarning keng dunyosini tanitish mumkin. Bu, o‘z navbatida, kitoblarni o‘qish madaniyatini yoshlar o‘rtasida kengroq targ‘ib qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, o‘qishning o‘ziga xos ijtimoiy tarmog‘ini yaratish, kitobxonlikni yoshlar o‘rtasida mashhur qilish ham muhim ahamiyatga ega.

Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-axloqiy ahmiyatini esa quyidagicha ifodalash mumkin:Kitobxonlik madaniyati, ijtimoiy rivojlanish va jamiyatning ma'naviy salohiyatini oshirishda katta rol o‘ynaydi. Kitoblarni o‘qish va ulardan to‘liq foydalanish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki butun jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qiladi. O‘z ma'naviyatini yuksaltirgan,

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

bilimli va ongli insonlar jamiyatni yanada rivojlantiradi, adolat va tenglikni ta'minlashga yordam beradi. Shu bilan birga, kitobxonlik madaniyati yoshlarni ijtimoiy mas'uliyatga undaydi, ularni jamiyatga foydali fuqarolar sifatida tarbiyalaydi.

Xulosa

Kitobxonlik madaniyati - bu nafaqat bilim olishning, balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishning ajralmas qismi hisoblanadi. Uning shakllantirilishi nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki yoshlarning axloqiy, estetik va ijtimoiy mas'uliyatini yuksaltiradi. Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda pedagogik metodlarning innovatsion yondashuvlari va jamiyatning hamkorligi muhim o‘rin tutadi. Shunday qilib, kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati juda katta va bu jarayonni davom ettirish jamiyatimizning har tomonlama taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekistonga jadal islohotlar sur’atiga mos ilg’or kadrlar kerak. – “Xalq so’zi”, 2018-yil 19-dekabr, 262-son.
2. Xudoyberdiyev, I. (2012). Ta'limda kitobxonlik madaniyati. Toshkent: O‘zbekiston davlat nashriyoti.
3. Karimova, G. (2017). Pedagogik jarayonlarda kitobning roli. Toshkent: Ta'lim.
4. Ibrohimov, S. (2019). Yoshlar tarbiyasida kitobxonlikning ahamiyati. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
5. Saidov, R. (2021). Kitob va madaniyat. Tashkent: Sharq.